

BOBURNING LIRIK MEROSI

Tursunova Moxigul Xikmatillo qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Boburning lirikasi haqida gap boradi. Muallifning g'azal, ruboiy va tuyuqlari tarkibidagi mavzu doiralari - muhabbat, hijron, vatan sog'inchi, insoniy kechinmalar hamda odob-axloq masalalari poetik qatlamda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Bobur, Bobur lirikasi, lirika, ilmiy meros, ijodiy meros.

Bobur ijodi mukammal bo'lgan shoirlardandir. Bobur lirikasi mavzu doirasi har xil. Asar tili sodda va ravon, mavzu esa ma'rifiy, dunyoviy va hayotiy masalalarni qamrab olgan. Bobur lirikasidagi g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, muammo, fard, masnaviy birlashtirilib devon holiga keltirilgan. Bobur o'zining ilk g'azalini 18yoshida, ya'ni 1501-yilda yozgan. G'azalning matlasi quyidagicha:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim. [Devon, 37-38]

Bu g'azalni Toshkent va Xo'jand oralig'idagi Turoq chorbog'ida yozilishi sabablari "Boburnoma"da bayon etilgan. Keyinchalik umri yakuniga qadar turli lirik janrlarda ijod qilgan. Umri so'ngida yozilgan to'rtligi esa fors tilida yozilganligini boburshunos olimlar aytib o'tgan.

Bobur o'zining lirik merosini ikki devonga taqsimlagan. Ulardan birinchisi 1519-yilda Kobulda tartib berilgan va uning bir nusxasi o'sha davrning o'zidayoq Samarqandga berib yuborilgan. Ikkinchisi esa 1528-1529-yilda Hindistonda tuzilgan. Bu ikki devonga kiritilgan she'rlar keyinchalik bir devon holiga keltirilgan. Bu haqida "Boburnoma"ga ilova yozgan kotib qo'shimcha tarzda ma'lumot berib o'tgan. Quyidagicha edi: "Bobur nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadai aytur edi. Alalxusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur" (Boburnoma 460-bet). Demak bundan ko'rinib turibdiki Bobur turkiy tilda yozgan she'riy asarlar alohida devon holiga keltirilgan.

Yana bir ma'lumotlarga qaraganda birinchi devonga shoirning Movarounnahr va Afg'onistonda, ikkinchi devoniga Hindistonda yozgan she'rlari kirgan. U she'rlardan ayrim parchalarni o'zining "Boburnoma"siga ham kiritgan. Undan bizgacha yetib kelgan to'rt ming misraga yaqin she'ning ko'pi o'zbek tilida orasida tojik tiliga oidlari ham topiladi. Bobur ijodida g'azal, ruboiy va masnaviy janrlari katta o'rin tutadi. Bundan tashqari tuyuq, muammo, qit'a va fardlar kabi lirikaning turli janrlarda ham she'rlar yozgan.

Boburning lirik asarlari orasida ruboiy janri ham diqqat va e'tiborga sazovordir. Boburning ruboiylari an'anaviy xususiyat va mavzuga ega bo'lsa-da, ammo ularda, g'azallarida bo'lgani singari, shoirning ko'rgan-kechirganlari, pand-o'gitlari ko'proq o'z aksini topadi. Ruboiylarida sddalik va samimiylik namoyon bo'ladi. Hasbi hol tarzidagi ruboiylarni ham uchratishimiz mumkin. Boburning pand-nasihat g'oyalari ufurib turgan, yoshlarni ilm olishga targ'ib qiladigan ruboiylariga ko'zimiz tushgan. Masalan bunday g'oyani quyidagi misralarda aniq ko'rishimiz mumkin:

Kim bor anga ilm, tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak!
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi - ilm kerak.

Yoki bo'lmasa o'zining vatan gadoligini tan olgan holda, yurtini qumsab ham ruboiylar yozgan. Quyidagi ruboiyda esa qancha oltini, kumushi bo'lmasin, Kobuldek joyda istiqomat qimasin, baribir u muqim bir joyda emasligidan afsuslanib, oh-vohlar chekadi:

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat qildi Bobur, dersiz
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Bobur hayot qiyinchiliklarini ko'rganligi bois ham, shunday ruhdagi asarlarni ko'p yozgan va asarlari hayotiylik, badiiylik jihatidan boshqa shoirlardan ajaralib turadi. Bobur umri davomida vatanini qumsashi har bir yozgan lirik va epik asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Boburning lirik merosi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Uning she'riyati nafaqat badiiy mahorati bilan, balki tarixiy, ma'naviy va estetik ahamiyati bilan ham qadrlanadi. Bobur lirikasida inson ruhiyati, hayotning o'tkinchiligi, muhabbat, tabiat go'zalligi, vatan tuyg'usi va davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy holatlari o'ziga xos badiiy ifodasini topgan. Shoir o'z she'rlarida sodda va tabiiy til, teran mazmun, keng kuzatuvchanlik va samimiyatni uyg'unlashtirgan.

Bobur yaratgan g'azal, ruboiy va boshqa lirik janrlar Sharq mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirgan holda, o'ziga xos ijodiy yangiliklar bilan boyitilgan. U o'z she'rlari orqali shaxsiyat, adolat, vatanparvarlik va ma'naviy yetuklik kabi g'oyalarni ilgari surgan. Shu bois Bobur lirikasini faqat badiiy yodgorlik sifatida emas, balki ma'naviy-ma'rifiy manba sifatida ham o'rganish muhimdir.

Umuman olganda, Boburning lirik merosi o'zbek adabiyoti tarixining bebaho qatlami bo'lib, uning poetik an'analari bugungi adabiy jarayon uchun ham ahamiyatini

yo'qotmagan. Shoirning lirik asarlari o'sib kelayotgan avlodni estetik did, ma'naviy poklik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: Yangi asr, 2006.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5tomlik. 3-tom. - T.: Fan, 1978.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon . - T.: Fan, 1994
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.(XVI-XIX asr I yarmi)-Toshkent, Fan, 2006.